



NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



***Dastlabki ma'lumot
2025- yil yanvar-fevral***

***Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi***

Тел. 69 211 72 00

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oyi, foizda)




2025- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 309 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 79 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 230 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-fevral, mlrd so'mda)



So'nggi 5 yillik (2021- 2025- yillar)da chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021- yilning mos davriga nisbatan 114,0 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, oylar kesimida (2024- 2025- yillar)



2025- yilning yanvar-fevral oyida o'sish sur'ati **112,0%** ni tashkil qildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2025- yilning yanvar-fevral oyida viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi 3 323,7 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 112,0 % ga yetdi.


Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 294,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 141,1 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 927,5mlrd so'mni (o'sish sur'ati 109,1 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 464,4 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 118,8 %) tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral oyi)

	Jami, mlrd so'm	2024- yil yanvar-fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	3 323,7	112,0
Namangan sh.	1 607,0	113,1
tumanlar:		
Mingbuloq	82,1	103,4
Kosonsoy	139,0	110,5
Namangan	146,1	106,6
Norin	111,2	109,4
Pop	205,3	121,2
To'raqo'rg'on	188,2	111,6
Uychi	124,1	116,2
Uchqo'rg'on	131,4	106,9
Chortoq	106,3	109,9
Chust	195,9	109,1
Yangiqo'rg'on	147,7	108,7

2025- yilning yanvar-fevral oyida 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan hududlarning Namangan sh. (113,1 %), Pop(121,2 %) va Uychi(116,2 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi va ulushi (Ulushi, foizda)



Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahar 48,4 % bilan 1 607,0 mlrd so'mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Mingbuloq 2,5 % bilan 82,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

2024- yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.




Hajmi, mlrd. so'm

Namangan shahar	1 607,0
Pop	205,3
Chust	195,9
To'raqo'rg'on	188,2
Yangiqo'rg'on	147,7
Namangan.t	146,1
Kosonsoy	139,0
Uchqo'rg'on	131,4
Uychi	124,1
Norin	111,2
Chortoq	106,3
Mingbuloq	82,1




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2025- yilning yanvar-fevral oyida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 927,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-fevraloyiga nisbatan 9,1 % ga oshdi. Namangan viloyatida miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 91,1 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2024- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 41,1 % ga o'sdi va 294,2 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 8,9 % ulushiga to'g'ri keldi.




CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



● Yirik korxonalar

● Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Yangiqo'rg'on (98,5 %), Uychi (98,4 %) va Kosonsoy (98,3 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush To'raqo'rg'on (18,0 %), Namangan shahri (10,6 %), Norin (9,0 %), Chust (6,7 %) va Chortoq (6,2 %) tumanlarida kuzatildi.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




AHOLI JON BOSHIGA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI (Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*)



2025- yilning yanvar-fevral oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 1 072,5 ming so'm (2024- yilning mos daviga nisbatan 109,6 %)ni tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Namangan sh. (2 279,5 ming so'm), Pop(863,7 ming so'm) va To'raqo'rg'on(758,8 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral), foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.


**Hududlar kesimida uyushmagan savdo hajmi va o'sish sur'atlari
(2025- yil yanvar-fevral)**

	Jami, mlrd. so'm	2024- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	108,0	117,6
Namangan sh.	12,3	85,3
tumanlar:		
Mingbuloq	1,7	77,0
Kosonsoy	9,5	125,8
Namangan	4,5	140,2
Norin	10,0	205,4
Pop	12,9	152,7
To'raqo'rg'on	13,5	138,6
Uychi	7,4	170,5
Uchqo'rg'on	7,1	78,8
Chortoq	10,1	169,2
Chust	12,3	155,6
Yangiqo'rg'on	7,7	117,0


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda
(2025- yil yanvar-fevral)**















**Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so'm
(2025- yil yanvar-fevral)**



Namangan viloyati bo'yicha 2025- yilning yanvar-fevral oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 464,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 118,8 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 158,6 mlrd so'mni (116,4 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 67,0 mlrd so'mni tashkil etdi (121,6 %).


2025-yilning yanvar-fevral oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 108,0 mlrd so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (3 891,3 mlrd so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi



<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</p> <p>36,0 mlrd so'm</p>  <p>50,0 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>13,4 mlrd so'm</p>  <p>8,2 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>20,3 mlrd so'm</p>  <p>13,7 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>5,9 mlrd so'm</p>  <p>4,4 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>4,4 mlrd so'm</p>  <p>6,1 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>1,8 mlrd so'm</p>  <p>3,5 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>3,5 mlrd so'm</p>  <p>3,5 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari</p> <p>7,9 mlrd so'm</p>  <p>4,5 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,9 mlrd so'm</p>  <p>1,2%</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,2 mlrd so'm</p>  <p>3,2 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</p> <p>2,5 mlrd so'm</p>  <p>1,7 %</p>	<p>Nooziq-ovqat tovarlar</p> <p>0,0 mlrd so'm</p>  <p>0 %</p>

2025- yilning yanvar-fevral oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 130,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 120,9 mlrd so'm, qo'y va echkilar – 8 687,9 mlrd so'mni, otlar – 893,8 mlrd so'mni, parrandalar – 346,2 mlrd so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari va parrandalar savdosi hajmi va ulushi

2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	1 yoshgacha bo'lgan yosh mollar
59,7 mlrd so'm	16,3 mlrd so'm	16,5 mlrd so'm
 54,8 %	 21,0 %	 16,8 %

Qo'ylar	Otlar	Echkilar
6,2 mlrd so'm	0,7 mlrd so'm	0,4 mlrd so'm
 6,1 %	 0,4 %	 0,5 %

Kurka, o'rdak, g'oz	Tovuqlar	Quyionlar
0,2 mlrd so'm	0,1 mlrd so'm	0,0 mlrd so'm
 0,3 %	 0,06 %	 0,02 %

Qushlar
0,0 mlrd so'm
 0,02 %



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2025- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 173 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 168 tani tashkil qildi.

Hududlar kesimida umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd so'm	2024- yil yanvar- fevraloyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 686,8	106,2
Namangan sh. tumanlar:	72,2	110,9
Mingbuloq	1,8	103,3
Kosonsoy	2,1	103,9
Namangan	4,4	116,8
Norin	1,9	103,4
Pop	4,4	126,7
To'raqo'rg'on	2,7	103,2
Uychi	1,7	103,5
Uchqo'rg'on	2,7	101,1
Chortoq	2,0	103,0
Chust	5,5	103,7
Yangiqo'rg'on	1,2	103,8

2025- yilning yanvar-fevral oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 2 686,8 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,2 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.


Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

(jismoniy shaxslar hisobga olinmagan holda)

	Hajmi, mlrd so‘m	Ulushi, foizda
Namangan viloyati	544,5	100,0
Namangan sh. tumanlar:	428,4	78,7
Mingbuloq	2,6	0,5
Kosonsoy	1,2	0,2
Namangan	5,3	1,0
Norin	4,5	0,8
Pop	1,7	0,3
To‘raqo‘rg‘on	1,7	0,3
Uychi	6,2	1,1
Uchqo‘rg‘on	0,5	0,1
Chortoq	2,4	0,4
Chust	88,5	16,3
Yangiqo‘rg‘on	1,6	0,3


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Namangan sh.(428,4 mlrd so‘m), Chust (88,5 mlrd so‘m) va Uychi (6,2 mlrd so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd so'm)




2025- yilning yanvar-fevral oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 544,5 mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan -5,6 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 165,5 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 97,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 364,7 mlrd so'm (o'sish sur'ati – 92,8 %)ni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'atlari, foizda




Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’i nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2025- yilning yanvar-fevral oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 522,3 mlrd so‘mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga 13,6 % ga o‘tdi.

Savdo aylanmasi va ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 026,3 mlrd so‘mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,5 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 80,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-fevral)

	Jami mlrd so'm	2024- yil yanvar- fevral oyiga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 522,3	113,6
Namangan sh.	1 309,8	115,8
tumanlar:		
Mingbuloq	23,3	105,2
Kosonsoy	83,4	101,4
Namangan	60,7	117,0
Norin	68,1	111,0
Pop	62,8	106,7
To'raqo'rg'on	95,4	101,8
Uychi	70,7	97,7
Uchqo'rg'on	21,1	106,9
Chortoq	108,3	163,8
Chust	34,6	89,5
Yangiqo'rg'on	58,1	106,6

2025- yil 1- mart holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 533 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 25 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 508 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Namangan (139,0 %), Namangan tumani (268,7 %) va Pop (205,6 %) kuzatildi.